



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



BADIIY MATNLARDA POLISEMANTIK BIRLIKLARNING TARJIMADA IFODALANISHI (KOREYS TILI MISOLIDA)

Yunusova Gulshoda Dilshodovna

Koreyashunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD

Oktyabrova Ruhshona Olimboy qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Koreyashunoslik Oliy maktabi 2-kurs bakalavr talabasi

oktyabrovaruhshona@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy tarjima jarayonida soʻzlarning koʻp maʼnoliligi, yaʼni polisemiya hodisasining oʻrni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayrim leksik birliklarning turli kontekstlarda qanday maʼno kasb etishi hamda ularning asl va koʻchma maʼnolari oʻrtasidagi semantik bogʻliqlik yoritiladi. Shuningdek, koʻp maʼnoli birliklarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yoʻllari misollar asosida koʻrib chiqiladi. Tadqiqot natijasida badiiy matnda maʼno qatlamlarini toʻgʻri anglash va ularni adekvat tarzda ifodalash tarjima sifatini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit soʻzlar: *badiiy tarjima, polisemiya, koreys tili, leksik-semantik tahlil, markaziy va koʻchma maʼno, metaforik kengayish, tarjima adekvatligi, lingvokulturologik yondashuv.*

Zamonaviy tarjimashunoslikda badiiy matnni tarjima qilish masalasi alohida ilmiy eʼtibor talab qiladigan murakkab jarayon sifatida qaraladi. Ayniqsa, turli tillarning leksik-semantik tizimi, madaniy qatlamlari va badiiy ifoda vositalari oʻrtasidagi tafovutlar tarjima jarayonida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, soʻzlarning koʻp maʼnoliligi, yaʼni polisemiya hodisasi badiiy tarjimaning eng muhim va murakkab jihatlaridan biri hisoblanadi. Chunki badiiy matnda har bir leksik birlik nafaqat oʻzining lugʻaviy maʼnosini, balki muayyan kontekst doirasida shakllangan qoʻshimcha semantik va estetik yuklamani ham ifodalaydi.

Badiiy tarjima shunchaki bir tildan ikkinchi tilga soʻzlarni oʻgirish emas, balki muallifning badiiy tafakkurini boshqa til muhitida qayta yaratish sanʼatidir. Bu jarayonda soʻzning lugʻatda qayd etilgan birlamchi maʼnosidan koʻra, uning konkret matn ichidagi badiiy-estetik vazifasi, hissiy boʻyogʻi va polisemantik (koʻp maʼnoli) imkoniyatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Binobarin, tarjimonning asosiy vazifasi asl nusxadagi har bir soʻzning zaminida yashiringan obrazli maʼno qatlamlarini aniqlash va ularni tarjima tili imkoniyatlari doirasida adekvat tarzda ifodalashdan iborat³⁶. Darhaqiqat, badiiy tarjima nafaqat lingvistik jarayon, balki murakkab kognitiv-estetik hodisadir. Uning mohiyati asl nusxadagi badiiy obrazlar tizimini, muallifning individual uslubini hamda asarning emotsional-ekspressiv muhitini

³⁶ Salomov Gʻ. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1983. – B. 84.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



boshqa til muhitida qayta yaratishdan iborat. Koreys tili misolida bu jarayon yanada murakkablashadi, chunki mazkur til o'zining boy leksik-semantik imkoniyatlari, ijtimoiy-madaniy qatlamlari hamda hurmat shakllarining rivojlangan tizimi bilan ajralib turadi.

Badiiy tarjimaning vazifasi ikki yoqlama xarakterga ega: kommunikativ-estetik vazifa va lingvokulturologik vazifa. Kommunikativ-estetik vazifa shundan iboratki, tarjimon kitobxonga nafaqat ma'lumotni yetkazishi, balki u o'qiyotgan matn san'at asari ekanligini his qildirishi lozim. Ya'ni, koreys tilidagi “정” tushunchasini shunchaki “mehr” deb emas, balki kontekstdagi o'rniga qarab “bog'liqlik” yoki “samimiylik” kabi obrazli vositalar orqali ifodalashi zarur. Lingvokulturologik vazifa esa milliy o'ziga xoslikni saqlagan holda, asarni tarjima tili (masalan, o'zbek tili) me'yorlariga moslashtirishni talab etadi³⁷.

Badiiy tarjimaning predmeti tarjima jarayonida yuzaga keladigan leksik-semantik muammolar, stilistik transformatsiyalar va polisemantik birliklarning ekvivalentini topish qonuniyatlaridan iborat. Ayniqsa, koreys tili leksikologiyasida so'zning ko'p ma'noliligi (polisemiya) tarjima jarayonining markaziy nuqtalaridan biri hisoblanadi. Masalan, koreys tilidagi “떡다” (yemoq) fe'li nafaqat ovqatlanishni, balki “yoshga to'lish”, “qo'rqish” yoki “pulni o'zlashtirish” kabi ma'nolarni ham anglatadi, bu esa tarjimondan chuqur leksik tahlilni talab qiladi³⁸.

Koreys tili leksikologiyasida polisemiya (다의성) hodisasi bitta leksik birlikning o'zaro semantik jihatdan bog'langan ikki yoki undan ortiq ma'noga ega bo'lishi bilan izohlanadi. Bunday birliklar koreys tilshunosligida “다의어” deb yuritiladi. Polisemiya omonimiyadan (tovushdosh so'zlardan) farqli ravishda, ma'nolar o'rtasidagi genetik va mantiqiy aloqadorlikning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Koreys tilida polisemiya hodisasining keng tarqalganligi tilning iqtisodiy tejamkorlik tamoyili hamda inson tafakkurining metaforik tabiati bilan izohlanadi.

Koreys tili leksikologiyasida polisemik so'zlarning ma'no strukturasi odatda ikki turga bo'linadi:

a) markaziy ma'no (중심의미) – so'zning lug'aviy asosi va birinchi navbatda tasavvurga keladigan ma'nosi;

b) ko'chma ma'nolar (주변의미) – markaziy ma'no asosida metafora, metonimiya yoki kontekstual kengayish natijasida hosil bo'lgan hosila ma'nolardir.³⁹

Masalan, koreys tilidagi “손” so'zining markaziy ma'nosi “qo'l” (tana a'zosi) bo'lsa, uning polisemantik qatori “ishchi kuchi”, “yordam”, “ta'sir kuchi” yoki “saxovat” kabi ko'chma ma'nolarni ham o'z ichiga oladi. Badiiy matn tahlilida ushbu ko'chma ma'nolarni to'g'ri differensiya qilish tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir.

³⁷ Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 156.

³⁸ Saydazimova U., Mirsharipova B., Yusupova G. T. Koreys tili leksikologiyasi: darslik. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021. – 180 b.

³⁹ 조현용. 한국어 어휘 교육론. [Koreys tili leksikologiyasi va metodikasi]. – 서울 : 박이정, 2012. – PP. 68-75.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Koreys tilshunos olimlarining ta'kidlashicha, koreys tili lug'at boyligining qariyb 30–40 foizini polisemantik so'zlar tashkil etadi, bu esa mazkur hodisani leksikologiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylantiradi⁴⁰.

Polisemiya hodisasi koreys tili leksikologiyasida nafaqat so'z yasash, balki jumlar semantikasini shakllantirishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, koreys tiliga xos bo'lgan fe'l va sifatlarning ko'p ma'noliligi badiiy asarning estetik yuklamasini ta'minlovchi asosiy lisoniy vosita bo'lib xizmat qiladi. Badiiy tarjimada ko'p ma'noli so'zlarni to'g'ri talqin qilish asarning estetik qiymatini belgilaydi. Buning isboti sifatida 오연서 (O Yeon-seo)ning “당신의 일상은 무슨 맛인가요?” (“Sening kundalik hayoting qanday ta'mga ega?”) asari tahlil qilinadi⁴¹.

Asar aslida taomlar haqida esse janriga mansub bo'lib, unda muallif turli taomlar va ularning tayyorlanish jarayonini bolalik xotiralari bilan bog'laydi. Ya'ni, muallif pazandalik orqali insonning hayotiy qiyinchiliklarini qanday yengib o'tishini, oilaviy munosabatlar va ichki o'sish haqida falsafiy mushohada yuritadi. Shuning uchun ham asardagi taom tayyorlash bilan bog'liq atamalar nafaqat pazandalikni tushuntiradi, balki polisemiyaning ham o'z ichiga olgan holda o'ziga xos ma'no kasb etadi. Masalan,

1. “당신의 일상은 무슨 맛인가요?”⁴². Sizning kundalik hayotingiz qanday ta'mga ega?

Yuqoridagi gapda 맛 – “ta'm” so'zining asl ma'nosi ovqatning shirin, achchiq yoki sho'r darajasini bildirsa-da, matnda muallif ushbu leksik birlikni hayotda his qilinadigan lazzat va hissiy kechinmalarni ifodalovchi ko'chma ma'noda qo'llagan.

2. “세상이 짜든 틀에 맞춰서 살았다”⁴³. Dunyo chizib qo'ygan qolipga moslashib yashadim.

Ushbu gapda esa 틀 – qolipning asl ma'nosi non yoki pishiriqqa shakl berish uchun foydalaniladigan temir idish bo'lsa-da, kontekstda bu so'z ko'chma ma'noda jamiyatning qat'iy qoidalari va insonning erkinligini cheklovchi me'yor sifatida qo'llangan.

3. “멸치의 비릿한 맛을 싫어한다”⁴⁴. Anchousning o'tkir hidini yomon ko'raman.

Yuqoridagi 비리다 - baliq hidi, xom baliqning yoki dengiz mahsulotining o'ziga xos hidini anglatsa-da, matnda muallif bu so'zni unutilishi qiyin bo'lgan yoqimsiz xotira, hayotning qiyin davrlari ma'nosiga ko'chirib ishlatgan.

4. “감자도 맛있게 익을 것 같다”⁴⁵. Kartoshka ham mazali pishadiganga o'xshaydi.

Bu gapning asosida turgan 익다 – pishmoq fe'lining asl ma'nosi xom mahsulotning issiqlik ta'sirida iste'molga tayyor bo'lish jarayonini bildirsa ham, kontekstda insonning ruhan

⁴⁰조현용. 한국어 어휘 교육론. [Koreys tili leksikologiyasi va metodikasi]. – 서울 : 박이정, 2012. – PP. 68-75

⁴¹오연서. 당신의 일상은 무슨 맛인가요? [Sening hayoting qanday ta'mga ega?] - 서울 : 온더페이지, 2022. – 256p.

⁴²오연서. 같은 책. - 서울 : 온더페이지, 2022. – P. 4.

⁴³오연서. 당신의 일상은 무슨 맛인가요? [Sening hayoting qanday ta'mga ega?] - 서울 : 온더페이지, 2022. – P. 5.

⁴⁴오연서. 같은 책. - 서울 : 온더페이지, 2022. – P. 88.

⁴⁵오연서. 같은 책. - 서울 : 온더페이지, 2022. – P.142.



ulg‘ayishi, vaqt o‘tib muammolarni tushunib yetishi, shuningdek, sabr-toqat orqali insonning pishib yetilishiga ishora qiladi.

5. “어제보다 더 단단한 어른으로”⁴⁶. Kechagidan ko‘ra mustahkamroq kattaga aylanib.

단단하다 - qattiq / mustahkam so‘zining asl ma‘nosi jismonan qattiq yoki ovqatga nisbatan qo‘llanilganda zich holat (asarda kimpabning mahkam o‘ralishi)ni bildirsa ham, ko‘chma ma‘noda insonning irodasi va ruhiy jihatdan osonlikcha sinmaydigan shaxsiyatini bildiradi.

6. “반죽이 부풀어 올라서 빵이 되었다”⁴⁷. Xamir ko‘pib chiqib nonga aylandi.

부풀다 - ishish / ko‘pish, xamirning hajmi kengayishini ifodalaydigan so‘z bo‘lsa-da, hikoyada muallif bu so‘zni qalbdagi umid, hayajon va orzularning ortishi ma‘nosida qo‘llab, bu jarayonni bolalikdagi orzularning o‘sishi bilan bog‘lagan.

7. “아름이 어느 순간 사라르 녹아내려”⁴⁸. Og‘riqlar qaysidir pallada sekingina erib ketadi.

Yuqoridagi kontekstda 녹다 – erish fe‘li asl ma‘noda muz yoki qattiq moddaning suyuqlikka aylanish holatini anglatasa ham, muallif bu so‘zni ginalarning kechirimga aylanishi, sovuq munosabatlarning ilishi ma‘nosiga mohirlik bilan ifodalagan.

8. “엄마가 돌돌 말아서 주는 김밥”⁴⁹. Onam o‘rab beradigan kimpap.

말다 so‘zining asl ma‘nosi o‘zbek tiliga “o‘rash” deb tarjima qilinib, ovqat tayyorlaganda, masalan, kimpab (roll)ni biror narsa ichiga o‘rash bo‘lsa-da, bu yerda o‘rash amali onalik mehri va himoyasini anglatadi, tarqoq hayotiy voqealarni yig‘ish yoki mehr bilan himoya qilish.

9. “간도 딱 맞고”⁵⁰. Tuzi ham joyida.

Mazkur gapda 간 leksik birligi o‘zbek tiliga “tuz yoki me‘yor” tarzida tarjima qilinib, uning markaziy ma‘nosi “ovqatning sho‘rlik darajasini to‘g‘irlaydigan ingredient”ni muallif hayotdagi muvozanat va kishi o‘zini tutishidagi o‘rta yo‘l ma‘nosiga mohirona qo‘llagan.

10. “한 끼를 소화하듯 삶을 살아낸다”⁵¹. Bir mahal ovqatni hazm qilgandek, hayotni ham yashab o‘taman.

소화하다 – “hazm qilish” deb tarjima qilinadigan ushbu fe‘lning asl ma‘nosi ovqatning parchalanish jarayonini bildiradi. Biroq matnda u metaforik tarzda qo‘llanib, qiyinchiliklarni anglab, ularni hayotiy tajriba sifatida qabul qilish ma‘nosini ifodalaydi.

⁴⁶오연서. 같은 책. - 서울 : 온더페이지, 2022. – P.12.

⁴⁷오연서. 당신의 일상은 무슨 맛인가요? [Sening hayotingqanday ta‘mga ega?] - 서울:온더페이, 2022. – P. 54.

⁴⁸오연서. 같은 책. - 서울:온더페이지, 2022. – P. 36.

⁴⁹오연서. 같은 책. - 서울:온더페이지, 2022. – P. 34.

⁵⁰오연서. 같은 책. - 서울:온더페이지, 2022. – P. 140.

⁵¹오연서. 당신의 일상은 무슨 맛인가요? [Sening hayotingqanday ta‘mga ega?] - 서울:온더페이지, 2022. – P. 6.